

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

*60810100 – Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining*

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

1. Toshkent davlat agrar universiteti,
2. “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil “25” iyun dagi uy – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. Umumiy tavsifi.....	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari	5
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	8
4. Fanlar katalogining tuzilishi.....	8
Bibliografik ma'lumotlar	10
Kelishuv varag'i	11

1. Umumiy tavsifi

60810100 – Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'lif shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'lifda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talablari 60810100 – Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lif muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lif yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lif muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lif yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lif muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'lifni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lif muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lif tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lif muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida texnikalardan foydalanish, boshqarish, yer, suv va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanib qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, qishloq xo'jaligi uchun innovatsion texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish va qo'llash hamda ularni takomillashtirish bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

Qishloq xo‘jaligi tizimidagi mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarish jarayonlari, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi tizimidagi mexanizatsiyalash boshqarmasi, qishloq xo‘jaligi boshqarmasi va tuman bo‘limlari, agroklasterlar va ularning mashina-traktor parklari, ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari, mashina-traktor parklari, qishloq xo‘jaligiga texnika xizmati ko‘rsatadigan korxona, firma va kompaniyalar, Qishloq xo‘jaligi texnikasi va texnologiyalarini sertifikatlash va sinash davlat markazi.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi, uning hududiy boshqarma va tuman bo‘limlari, “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati va uning hududiy filiallari, qishloq xo‘jaligi texnikasini yetkazib berish bilan shug‘ullanadigan dilerlik markazlari.

“O‘zKeysmash” aksiyadorlik jamiyati, “O‘zKeysservis” aksiyadorlik jamiyati va uning hududiy bo‘limlari, “Agrixim” mas’uliyati cheklangan jamiyati, “O‘zClaasAgro” QK, “O‘zClaasservis” mas’uliyati cheklangan jamiyati va uning hududiy bo‘limlari, qishloq xo‘jaligi texnikalarini loyihalash va ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan korxona va tashkilotlar.

60810100 – Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgan taqdirda, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruvi organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy–tadqiqot;*
- *tashkiliy–boshqaruvi;*
- *loyihaviy–konstrukturlik;*
- *axborot–tahliliy faoliyat;*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60810100 – Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

respublika va xorijda chop etilgan qishloq xo‘jaligi texnika va texnologiyalariga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o‘rganish;

soha bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

mavzu (topshiriq) bo‘yicha ilmiy-texnikaviy ma’lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma’lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirot etish.

qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqarish sifatini nazorat qilish;

amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikatsion vositalaridan foydalanish;

zamonaviy texnologik jarayonlarni qo'llash;

ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish;

agrosanoat majmuasida ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

qishloq xo'jaligida mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

agrosanoat majmuasida mavjud texnologiyalar va texnik vositalaridan samarali foydalanish, ularning ko'rsatkichlarini baholash va oshirish choralarini ko'rish;

agrosanoat majmuasida ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy texnik bazasi va resurslarini rejalashtirish;

zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;

kasbga oid muammolarning yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

birlamchi ishlab chiqarish bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

Loyihaviy-konstrukturlik faoliyatida:

agrosanoat majmuasida ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini loyihalash, mehnatni ilmiy tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini ixtisosligiga mos ravishda qo'llash.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni toplash, qayta ishlash va tahlil qilish;

zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot toplash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish; ishlab chiqarish samaradorligini baholash; axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash; boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

kasbiy faoliyatda tabiiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana olishi, matematik tahlil va modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini qo'llay olishi;

og'zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va meyorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g'oya, taklif, ta'rif va xulosalarni mantiqiy, to'g'ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko'rib chiqish, o'z-o'zini rivojlantirish, malaka oshirish va o'z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o'zgartirishga qodir bo'lishi;

ish joyidagi potensial xavflarni yaxshi tushunishi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarining oldini ola bilishi;

axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishni;

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun texnikalar tanlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayonlarini mexanizatsiyalashni amalga oshira olishlari va ular asosida ishlab chiqarish loyihalarini ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirish agrotexnikasi va zootexniya talablarini qanoatlantiruvchi energiya-resurstejamkor, samarali mexanizatsiyalashgan texnologiyalarni joriy etishni bilishi;

qishloq ishlab chiqarish sub'ektlari uchun zarur texnika vositalarini tanlashni bilishi, ulardan samarali foydalanishni tashkil etishi va boshqarishi;

mahalliy sharoitga qarab ishlarni o'z agrotexnik muddatlarida sifatli amalga oshirishni ta'minlaydigan texnika vositalari va jihozlarini tanlash hamda ularning texnik servisi va ekspluatatsiyasini tashkil etish ko'nikmalariga ega bo'lish;

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ish sifati va unumini oshirish hamda energiya-resurstejamkorlikka erishishga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lish, tadqiqotlarda ishtirop etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil qilish;

qishloq xo'jaligi ob'ektlarida texnikaviy ta'minot tizimini texnik-iqtisodiy tahlil qilishni, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlashni, istiqbolli rejalar tuzishni bilish;

qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayonlarini, agrotexnik tadbirlarning bajarilishi sifatini aqli (smart) texnologiyalar yordamida nazorat qilish;

agrotexnik tadbirlarni bajarishda qo'llaniladigan mashina-tarktor aggregatlari, ish jihozlarining tuzilishi, ishlash jarayonini o'zlashtirish, tahlil qilish va takomillashtirish bo'yicha qobilyatga ega bo'lishi;

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonlari bo'yicha texnik va texnologik jihatdan tartibga solish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va kasbiy faoliyatida ulardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

korxonaning maqsadi va strategiyasiga muvofiq uning xususiyatlari va mijozlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda sifat siyosatini yaratish hamda takomillashtirish bo'yicha takliflar va chora-tadbirlar ishlab chiqishi;

resurstejamkor va innovatsion texnikalarga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish jarayonlarida qo'llaniladigan mashina va mexanizmlarning ish jarayonlarini tashkil etish, ish unumi yuqori bo'lgan jihoz va vositalarni tanlash, tadbiq qilish, texnologik jarayonlarni loyihalash va ularni amalda joriy qilishni bilishi;

ishlab chiqarishda muammolarning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish hamda ular takrorlanishining oldini olish choralarini ishlab chiqish uchun mijozlar, ichki bo'limlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot qilishga qodir bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lif yo'naliishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

- O'quv tanishuv amaliyoti;
- Ishlab chiqarish amaliyoti;
- Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiylukdagi yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00 Majburiy fanlar					
1.01	TIL1105	O'zbek (rus) tili	150	5	1
1.02	OYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.03	JTS1104	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.04	FIZ1105	Fizika	150	5	1
1.05	XT1112	Xorijiy til	360	12	1,2
1.06	MAT1112	Oliy matematika	360	12	1,2
1.07	KIM1105	Kimyo	150	5	2
1.08	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	2
1.09	FAL1104	Falsafa	120	4	2
1.10	QMA1105	Qishloq xo'jaligi muhandisligi asoslari	150	5	2
1.11	HFX2104	Hayot faoliyati xavfsizligi	120	4	3
1.12	MKG2105	Muhandislik va kompyuter grafikasi	150	5	3

1.13	AD2105	Amaliy dasturlash	150	5	3
1.14	GTZ2106	Gidravlika va gidravlik tizimlar	180	6	3
1.15	MT2105	Muhandislik termodynamikasi	150	5	3
1.16	NMMQ2109	Nazariy mexanika. Materiallar qarshiligi	270	9	3,4
1.17	MD2106	Mashina detallari	180	6	4
1.18	MMT2105	Materialshunoslik va konstruktsion materiallar texnologiyasi	150	5	4
1.19	TD2105	Tuproqshunoslik va dehqonchilik	150	5	4
1.20	ChMYT2105	Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish texnologiyalari	150	5	4
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish bo'yicha majburiy fanlar					
1.21	TTV3112	Traktorlar va transport vositalari	300	10	5,6
1.22	QXM3112	Qishloq xo'jaligi mashinalari	300	10	5,6
1.23	AQX3106	Aniq koordinatali qishloq xo'jaligi	180	6	5
1.24	ChTT34110	Chorvachilik texnika va texnologiyalari	300	10	6,8
1.25	QFS341105	Qishloq xo'jalik texnikalaridan foydalanish va texnik servis	300	10	6,8
1.26	QTT4106	Qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalar	180	6	8
2.00		Tanlov fanlari	1290	43	4,5,6,8
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1290	43	4,5,6,8
Kvalifikatsiya Muhandis-mexanik (qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish bo'yicha)					
Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis bo'yicha majburiy fanlar					
1.21	TTV3106	Traktorlar va transport vositalari	180	6	5
1.22	QXT3110	Qishloq xo'jaligi texnikalari	300	10	5,6
1.23	ATB3110	Agrosanoat tizimlarini boshqarish	300	10	5,6
1.24	QMTF3110	Qishloq xo'jaligi va meliorativ texnikalaridan foydalanish va texnik servis	300	10	6,8
1.25	QTS4110	Mashinalar ishonchliligi va ta'mirlash texnologiyasi	300	10	6,8
1.26	QMT4106	Qishloq xo'jaligi va meliorasiya texnikalari markentingi	180	6	8
2.00		Tanlov fanlari	1290	43	4,5,6,8
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1290	43	4,5,6,8
Kvalifikatsiya Muhandis-mexanik (qishloq va suv xo'jaligida texnik servis bo'yicha)					
		Malakaviy amaliyat	900	30	7
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	-	-	8
		Jami:	900	30	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 631.03

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, ta'lif yo'nallishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, qishloq xo'jaligi texnikasi, innovatsion texnika va texnologiyalar, texnik xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish, texnologik jarayonlar, resurstejamkor texnikalar, mashina-traktor agregati, mustaqil ta'lif, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lif muassasasi, ta'lif jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari hamda
kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti

Rektor  B. Mirzayev

202_yil " " _____

M.O'.




KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'lifni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi
Direktor  M. Boltabayev



O'zbekiston Respublikasi
Qishloq xo'jaligi vazirligi
Ilm-fan, innovatsiyalar va ta'lifni
rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i

T. Ataqulov



M.O'.

"AGRIXIM" MCHJ

Bos direktori

A.I. Yuldashev

202_yil " " _____
AGRIXIM
M.O'.


Qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash
ilmiy-tadqiqot instituti direktori

R.R. Xudaykuliev

202_yil " " _____
M.O'.


Toshkent davlat agrar universiteti
Birinchi prorektori

S. Islamov



Qishloq xo'jaligi texnikasi va
texnologiyalarini sertifikatlash va
sinash markazi direktori

M.A. Xakimov



M.O'.